

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023- YIL  
YANVAR-DEKABR**

**Nurafshon - 2024**

## SO‘Z BOSHI

Toshkent viloyatining statistik axborotnomasi Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023- yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha Toshkent viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar birinchi marta Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2- tahrir) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, Yalpi hududiy mahsulot hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, Yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, demografik holat va bandlik to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

**Qisqartma va shartli belgilar**

YAHM	-	yalpi hududiy mahsulot	0,0	-	katta bo'lmagan miqdor
%	-	foiz	m.	-	marta
mlrd.	-	milliard	-	-	ko'rsatkichning yo'qligi
mln.	-	million	ga	-	gektar
mln. AQSh doll.	-	million AQSh dollari	t	-	tonna
kv.	-	kvadrat	dona	-	dona
km	-	kilometr	yo'lovchi/km	-	yo'lovchi-kilometr
m	-	metr	1), 2), 3) , , .....	-	izohning mavjudligi
f.p.	-	foiz punkt	f.d.	-	foiz daraja

## MUNDARIJA

Nomi	bet
<b>ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>6</b>
<b>TOSHKENT VILOYATINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN SOLISHTIRMA ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI</b>	<b>7-8</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH</b>	<b>9-17</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>18-31</b>
<b>III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI</b>	<b>32-47</b>
<b>IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH</b>	<b>48-58</b>
<b>V. XIZMATLAR</b>	<b>59-68</b>
<b>VI. TRANSPORT</b>	<b>69-74</b>
<b>VII. ISTE'MOL BOZORI</b>	<b>75-80</b>
<b>VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT</b>	<b>81-89</b>
<b>IX. KICHIK TADBIRKORLIK</b>	<b>90-94</b>
<b>X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI</b>	<b>95-103</b>
<b>XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI</b>	<b>104-123</b>
<b>XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>124-131</b>
<b>XIII. DEMOGRAFIK HOLAT</b>	<b>132-144</b>

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar  
2023- yil yanvar-dekabr**


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	107 918,1	105,0
Sanoat mahsuloti	105 762,5	105,1
Iste'mol tovarlari	22 401,4	106,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari	41 001,6	104,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	44 449,2	112,8
Qurilish ishlari	14 323,1	106,2
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	2 008,6	102,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	19 118,7	100,4
Chakana savdo tovar aylanmasi	30 130,8	108,3
Xizmatlar, jami	31 934,8	110,8
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll.)	5 706,8	102,2
Eksport	1 858,2	91,0
Import	3 848,6	108,7
Saldo (+;-)	-1 990,4	x

**Toshkent viloyatining O‘zbekiston Respublikasi bilan  
solishtirma asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari  
2023- yil yanvar-dekabr**

	O‘zbekiston Respublikasi		Toshkent viloyati		Toshkent viloyatining respublikadagi ulushi, %	
	mlrd. so‘m	o‘tgan yilga nisbatan, %	mlrd. so‘m	o‘tgan yilga nisbatan, %	2022- yil yanvar-dekabr	2023- y. yanvar-dekabr
Yalpi ichki (hududiy) mahsulot	1 066 569,0	106,0	107 918,1	105,0	10,6	10,1
Sanoat mahsuloti	655 821,9	106,0	105 762,5	105,1	17,0	16,1
Iste‘mol tovarlari	189 009,7	107,3	22 401,4	106,1	12,6	11,9
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	426 264,0	104,1	41 001,6	104,0	9,7	9,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	352 064,1	122,1	44 449,2	112,8	13,4	12,6
Qurilish ishlari	149 864,1	106,4	14 323,1	106,2	9,4	9,6
Chakana savdo	326 160,1	109,1	30 130,8	108,3	9,3	9,2
Bozor xizmatlari	470 286,5	113,7	31 934,8	110,8	7,1	6,8
Eksport, mln. AQSh doll.	24 426,2	123,8	1 858,2	91,0	10,4	7,6
Import, mln. AQSh doll.	38 141,2	124,0	3 848,6	108,7	11,5	10,1

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi ichki mahsulotning 10,1 foizi, sanoat mahsulotlarining 16,1 foizi, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larning 9,6 foizi, chakana savdo tovar aylanmasining 9,2 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 12,6 foizi, qurilish ishlari hajmining 9,6 foizi, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 6,8 foizi, eksportning 7,6 foizi va importning 10,1 foizi Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda  
Toshkent viloyatining ishtiroki**  
2023- yil yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan %da)



■ Respublikaning boshqa hududlari

■ Toshkent viloyati